NODIRSHOH AFSHOR HARBIY TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI: TURKIY HARBIY AN'ANALAR VA SAFAVIYLAR TAJRIBASI

Elliyeva Sadoqat Axmat qizi

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

2-kurs magistranti

sadoqatelliyeva10@gmail.com

ORCID iD: 0009-0001-8863-5363

+998770339937

Annotatsiya. Mazkur maqolada XVIII asr Eron tarixida muhim o`rin tutgan Afshoriylar sulolasi asoschisi Nodirshoh Afshorning harbiy tizimi, uning shakllanish omillari va rivojlanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Nodirshoh qo`shinining shakllanishida qadimgi turkiy harbiy an'analar hamda Safaviylar davrida rivojlangan harbiy tajribaning o`rni ochib beriladi. Xususan, otliq qo`shinlarning harakatchanligi, Turon taktikasi, kamonchilarning jangovar imkoniyatlari, o`qotar qurollar va artilleriyaning qo`llanilishi, muntazam va qabilaviy qo`shinlarning o`zaro munosabati tahlil qilinadi. SHuningdek, Nodirshoh qo`shinining ko`p millatli tarkibi va turli etnik guruhlarni yagona harbiy tizimga birlashtirish siyosatiga e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijasida Nodirshoh harbiy tizimi faqat biror avvalgi modelning davomchisi bo`lmay, qadimgi turkiy harbiy an'analar, Safaviylar tajribasi va Nodirshohning o`ziga xos strategik qarashlari uyg`unligi asosida shakllanganligi ko`rsatiladi.

**Kalit so`zlar**: Nodirshoh Afshor, Afshoriylar, Safaviylar, turkiy harbiy an'analar, Turon taktikasi, otliq qo`shin, artilleriya, Qizilboshlar, turkmanlar, afg`onlar, harbiy islohot, XVIII asr Eroni.

Abstract. This article analyzes the military system of Nader Shah Afshar, the founder of the Afsharid dynasty, who played a significant role in the history of eighteenth-century

Iran. It examines the factors contributing to the formation of his military system and the characteristics of its development. The study highlights the role of ancient Turkic military traditions and the military experience developed during the Safavid period in the formation of Nader SHah's army. In particular, it analyzes the mobility of cavalry units, Turanian military tactics, the combat capabilities of archers, the use of firearms and artillery, and the interaction between regular troops and tribal forces. Attention is also paid to the multiethnic composition of Nader Shah's army and his policy of integrating various ethnic groups into a unified military system. The study demonstrates that Nader Shah's military system was not merely a continuation of a previous model but rather emerged from the combination of ancient Turkic military traditions, Safavid military experience, and Nader Shah's distinctive strategic vision.

Keywords: Nader Shah Afshar, Afsharid dynasty, Safavids, Turkic military traditions, Turanian military tactics, cavalry, artillery, Qizilbash, Turkmens, Afghans, military reforms, eighteenth-century Iran.

Аннотация. В данной статье анализируется военная система Надир-шаха Афшара, основателя династии Афшаридов, сыгравшего важную роль в истории Ирана XVIII века. Рассматриваются факторы формирования его военной системы и особенности её развития. В исследовании раскрывается роль древних тюркских военных традиций, а также военного опыта, накопленного в период правления Сефевидов, в формировании армии Надир-шаха. В частности, анализируются мобильность кавалерии, туранская военная тактика, боевые возможности лучников, применение огнестрельного оружия и артиллерии, а также взаимодействие регулярных войск и племенных вооружённых формирований. Особое внимание уделяется многоэтничному составу армии Надир-шаха и его политике объединения различных этнических групп в рамках единой военной системы. В результате исследования показано, что военная система Надир-шаха являлась не просто продолжением ранее существовавшей модели, а сформировалась на основе сочетания древних тюркских военных традиций, военного опыта Сефевидов и самобытных стратегических взглядов самого Надир-шаха.

Ключевые слова: Надир-шах Афшар, династия Афшаридов, Сефевиды, тюркские военные традиции, туранская военная тактика, кавалерия, артиллерия, кызылбаши, туркмены, афганцы, военные реформы, Иран XVIII века.

Kirish

XVIII asrning birinchi yarmi Eron tarixida siyosiy beqarorlik, sulolaviy kurashlar va tashqi harbiy bosqinlar kuchaygan davr sifatida ajralib turadi. Safaviylar davlatining zaiflashuvi natijasida markaziy hokimiyatning mavqei pasayib, mamlakatning turli hududlarida siyosiy va harbiy kuchlar o`rtasidagi kurash kuchaydi. Ayniqsa, G`ilzay afg`onlarining Eron hududiga bostirib kirishi Safaviylar davlatining siyosiy inqirozini yanada chuqurlashtirdi. Ana shunday murakkab tarixiy sharoitda Nodirshoh Afshor[1] siyosiy maydonga chiqdi. Nodirshoh 1688-yilda Xuroson hududida Afshoriy turkmanlarning Qiriqlu urug`iga mansub oilada tug`ilgan. Uning dastlabki harbiy faoliyati Abivard hududida boshlangan bo`lib, bu davrda u mahalliy qabilalar bilan kurashlar, o`qotar qurollardan foydalanish va harbiy boshqaruv tajribasini egallagan. Keyinchalik u Mashhad hukmdori Malik Mahmud xizmatiga kirib, harbiy qo`mondon sifatida o`z qobiliyatini namoyon etdi. Uning siyosiy va harbiy mavqei tez sur’atlarda oshib bordi. Nodirshohning tarixiy faoliyatida harbiy omil alohida ahamiyat kasb etgan. U qisqa vaqt ichida G`ilzaylarni mag`lub etib, Eron hududida markaziy hokimiyatni qayta tikladi. Keyinchalik uning harbiy yurishlari Xuroson, Kavkaz, Iroq, Afg`oniston, Turkiston va Hindiston hududlarini qamrab oldi. 1739-yildagi Hindiston yurishi esa uning harbiy faoliyatidagi muhim burilishlardan biri bo`lib, avvalgi mudofaa xarakteridagi urushlardan hududiy va iqtisodiy ekspansiyaga o`tishni ko`rsatdi. Nodirshohning harbiy muvaffaqiyatlarini tushunish uchun uning qo`shini qanday shakllanganini, qanday harbiy an’analarga tayanganini va qanday islohotlar amalga oshirilganini o`rganish muhimdir. SHu nuqtayi nazardan, uning harbiy tizimida qadimgi turkiy harbiy an’analar va Safaviylar

1.Axworthy, M. *The Sword of Persia: Nader Shah: From Tribal Warrior to Conquering Tyrant*. London: I.B. Tauris, 2006. DOI: https://doi.org/10.5040/9780755612291

davrida shakllangan harbiy tajribaning o`zaro uyg`unlashuvi alohida ilmiy ahamiyatga ega.[2]

Asosiy qism

Nodirshohning harbiy faoliyati Abivard hokimi va hududdagi Afshoriy turkmanlar rahbari Baba Ali Beg xizmatida boshlangan. Aynan shu davrda u Xurosonning shimoli-sharqiy hududlarida harbiy tajriba orttirib, o`qotar qurollardan foydalanishni o`rgandi. Dastlab u mahalliy qabilalarga qarshi mushketyor sifatida jang qilgan va jasorati tufayli qo`riqchilar bo`linmasiga qo`mondon etib tayinlangan. Keyinchalik Nodirshoh Mashhadga kelib, Malik Mahmud xizmatiga kirdi. U qisqa vaqt ichida otliq qo`shin bo`linmasiga qo`mondon bo`ldi va bir necha yil ichida ming nafar otliqdan iborat bo`linmaning rahbariga aylandi. Bu davr Nodirshohning harbiy iste'dodi va rahbarlik qobiliyatining shakllanishida muhim bosqich bo`ldi. Malik Mahmud bilan siyosiy kelishmovchiliklardan so`ng Nodir Abivardga qaytib, o`z qo`shinini shakllantira boshladi. U mahalliy kuchlarni o`z atrofiga birlashtirib, Malik Mahmud, o`zbeklar va afg`onlarga qarshi harbiy harakatlar olib bordi. Keyinchalik SHoh Tahmasp bilan ittifoq tuzishi uning siyosiy mavqeini yanada mustahkamladi.

1727–1728-yillarda Nodir SHoh Tahmasp qo`shinining bosh qo`mondoni bo`ldi. 1729-yilda Damg`onda Abdal(i) afg`onlariga qarshi g`alaba qozonganidan so`ng unga "Tahmasp Quli Xon" unvoni berildi. 1730-yilda esa u Xuroson beglarbegisi etib tayinlandi. SHoh Tahmasp taxtdan ag`darilgach, Nodirshoh Eron hukmdori sifatida e'lon qilindi.[3]

Nodirshoh harbiy tizimining muhim xususiyatlaridan biri uning qadimgi turkiy harbiy an'analar bilan bog`liqligidir. Dasht hududlarida yashagan qadimgi turkiy xalqlarning ijtimoiy va harbiy tizimi tabiiy sharoit, doimiy harakatchanlik va xavfsizlikka tayyor turish zarurati asosida shakllangan. Qadimgi turkiy qo`shinlarning asosiy ustunligi otliq

[2] Axworthy, M. The Sword of Persia: Nader Shah, from Tribal Warrior to Conquering Tyrant. London, 2006.

[3] Fraser, J. The History of Nadir Shah. London, 1742. S-234

jangchilarning ko`pligi va yuqori harakatchanligi edi[4]. Tezkorlik qo`shinga jang maydonida tashabbusni egallash, dushmanga kutilmagan zarba berish, qo`shin qismlarini tez joylashtirish va kerakli vaqtda kuchlarni bir nuqtaga jamlash imkonini bergan. Turkiy harbiy an'analarning mashhur namunalaridan biri "Turon taktikasi" bo`lib, u soxta chekinish va keyinchalik pistirma uyushtirishga asoslangan. Ushbu taktika dasht sharoitida jang olib boruvchi otliq qo`shinlar uchun ayniqsa samarali bo`lgan. Kamonchilarning uzoq masofadan turib jang qilish qobiliyati ham turkiy qo`shinlarning muhim ustunligi edi. Ular dushman bilan bevosita to`qnashmasdan, ma'lum masofani saqlagan holda katta talafot yetkazishlari mumkin bo`lgan. Bu esa og`ir va sekin harakat qiluvchi qo`shinlarga qarshi kurashda muhim ustunlik yaratgan. SHuningdek, turkiy qo`shinlar razvedka yurishlariga katta ahamiyat bergan. Razvedkadan so`ng dushmanni holdan toydirishga qaratilgan urush usullari qo`llanilgan. Bunda harbiy harakatlar bilan bir qatorda psixologik ta'sir usullaridan ham foydalanilgan.

Nodirshoh qo`shini shakllanishida ikkinchi muhim manba Safaviylar harbiy tizimi bo`lgan. Safaviylar davrida XVI asrda yuz bergan harbiy mag`lubiyatlar, xususan, CHaldiron jangidan keyin qo`shinni modernizatsiya qilish zarurati yuzaga kelgan. SHu sababli Safaviylar qo`shinida o`qotar qurollar va artilleriya tobora muhim o`rin egallay boshladi. XVI asrning birinchi choragiga kelib qo`shinning o`t ochish qudrati sezilarli darajada oshdi. SHoh Abbos I davrida esa qo`shin qayta tashkil qilinib, artilleriya korpusi kengaytirildi. Safaviylar harbiy tizimida Usmonli tajribasi va G`arb harbiy texnologiyalaridan foydalanilgan. Portugallar orqali porox texnologiyasi kirib kelgan, britaniyalik SHirli aka-ukalari esa harbiy maslahatchilar sifatida xizmat qilgan. Natijada Safaviylar qo`shini o`z davrining o`t ochish qudratiga ega bo`lgan davlatlaridan biriga aylandi. Safaviylar qo`shini muntazam va nomuntazam kuchlardan tashkil topgan. Otliq, piyoda va artilleriya qismlari muntazam kuchlarni tashkil qilgan bo`lsa, Qizilboshlar va kurchilar nomuntazam kuchlar sifatida xizmat qilgan. Nodirshoh ushbu tajribani butunlay

[4] Bonakdarian, Mansour. "INDIA vii. RELATIONS: THE AFSHARID AND ZAND PERIODS." Encyclopaedia Iranica. Published December 15, 2004. https://www.iranicaonline.org/articles/india-vii-relations-the-afsharid-and-zand-periods/

rad etmagan. Aksincha, u Safaviylar davrida rivojlangan o`qotar qurollar, artilleriya va harbiy tashkilot elementlarini qadimgi turkiy otliq qo`shin an'analari bilan birlashtirdi[5].

Nodirshoh qo`shinining eng muhim xususiyatlaridan biri uning ko`p millatli tarkibi edi. Uning armiyasida Qizilboshlar, turkmanlar, o`zbeklar, gruzinlar, forslar, afg`onlar, hindlar, kurdlar, balujlar, lezgilar va boshqa guruhlar xizmat qilgan. Bunday tarkib Nodirshohga turli hududlardagi harbiy resurslardan foydalanish imkonini berdi. Ayniqsa, turkman va afg`on jangchilarining harakatchanligi, Qizilbosh otliqlarining jangovar tajribasi va boshqa guruhlarning maxsus harbiy imkoniyatlari qo`shin salohiyatini oshirdi. Nodirshoh qabila kuchlarini ham davlat qo`shini tarkibiga jalb qilgan. Qabila boshliqlari "Maliyat-i Hun", ya'ni "qon solig`i" tizimi orqali ma'lum miqdorda jangchilar taqdim etishlari kerak edi. SHu sababli harbiy yurishlar vaqtida qo`shin soni sezilarli darajada oshishi mumkin edi. Nodirshohning bu siyosati faqat harbiy maqsadga emas, siyosiy maqsadga ham xizmat qilgan. Turli qabilalar va etnik guruhlarni qo`shin tarkibiga kiritish orqali u ularni markaziy hokimiyatga bog`lashga harakat qilgan. Qandahor egallangandan keyin ayrim yosh G`ilzaylarning Nodirshohning shaxsiy qo`riqchilari tarkibiga kiritilishi bunga yaqqol misol bo`la oladi. Bu usul bir tomondan ularni davlat xizmatiga jalb qilgan bo`lsa, ikkinchi tomondan ularni bevosita markaziy hokimiyat nazorati ostida ushlab turishga imkon bergan[6].

Nodirshoh qo`shinining aniq sonini belgilash qiyin, chunki u harbiy yurishlarning ko`lami va davrga qarab o`zgarib turgan. Ayrim tadqiqotlarda uning qo`shini 50 000–200 000 kishi oralig`ida baholanadi. Boshqa manbalarda esa Nodirshoh qo`shinining eng yuqori soni 375 000 kishiga yetgani qayd etiladi. 1744-yilda Kars qamali vaqtida qo`shin soni taxminan 150 000 kishi bo`lgan deb baholanadi. 1745-yilda Usmonlilarga qarshi urushlar vaqtida esa zaxira kuchlarining soni taxminan 40 000 kishini tashkil qilgan. Bu raqamlar Nodirshohning qo`shini faqat doimiy harbiy qismlardan iborat bo`lmaganini

[5] Духовно-исторические связи народов Ирана и Дашти Кипчака: материалы Международной научно-практической конференции «Духовно-исторические связи народов Ирана и стран Центральной Азии» (15–16 мая 2017 г., г. Алматы) / отв. ред. и сост. Сафар Абдулло. Алматы: Издательский дом «Библиотека Олжаса», 2018. 360 с.

[6] Bonakdarian, Mansour. "INDIA vii. RELATIONS: THE AFSHARID AND ZAND PERIODS." *Encyclopaedia Iranica*. Published December 15, 2004. https://www.iranicaonline.org/articles/india-vii-relations-the-afsharid-and-zand-periods/

ko`rsatadi. Uning asosiy qo`shini zarur hollarda qabilaviy lashkarlar va hududlardan safarbar qilingan kuchlar hisobiga sezilarli darajada kengaytirilgan[7].

Nodirshoh harbiy tizimida otliq qo`shin alohida o`rin egallagan. Bu jihat qadimgi turkiy harbiy an'analar bilan bevosita bog`liq edi. Nodirshohning otliq qo`shinlari qiyin geografik sharoitlarda ham o`zining tezligi va harakatchanligini saqlab qolish qobiliyatiga ega bo`lgan. Otliq jangchilarning ayrimlari nayza, kamon va mushketlardan foydalangan. Nodirshoh mansub bo`lgan Afshor qabilasi qo`riqchi otliq qo`shinining muhim qismini tashkil etgan. Qizilbosh otliqlari ham samarali jangovar kuch sifatida ajralib turgan. Afg`on jangchilari esa Nodirshoh tomonidan "shock cavalry" - zarba beruvchi otliq qo`shin sifatida ishlatilgan. Turkmanlar, o`zbeklar va balujlar esa yengil qo`shinlar tarkibida xizmat qilgan. SHunday qilib, Nodirshoh qo`shini otliq kuchlarning tezkorligi va piyoda hamda artilleriya qismlarining o`t ochish imkoniyatlarini birlashtirgan murakkab harbiy tizimga aylangan[8].

Nodirshohning harbiy tizimining samaradorligi uning ko`plab yurishlarida namoyon bo`ldi. U Xuroson, Afg`oniston, Kavkaz, Iroq, Turkiston va Hindistonda harbiy operatsiyalar olib bordi. 1730-1745-yillar oralig`ida Usmonli imperiyasiga qarshi bir necha marta urush olib borildi. Bag`dod, Mosul, Kirkuk, Hamadon, Adana, Kars va Arbil kabi hududlar bu qarama-qarshiliklarning asosiy harbiy maydonlariga aylandi. 1739-yildagi Hindiston yurishi esa alohida ahamiyatga ega. Avvalgi urushlar asosan Eron hududlarini himoya qilish va markaziy hokimiyatni tiklash bilan bog`liq bo`lgan bo`lsa, Hindiston yurishi yangi hududlar va moliyaviy resurslarni egallashga qaratilgan edi. Nodirshohning harbiy strategiyasida tezkorlik, kuchlarni birlashtirish, dushmanning zaif nuqtalaridan foydalanish, razvedka va psixologik urush kabi omillar muhim o`rin tutgan. Masalan, 1744-yildagi Kars qamali vaqtida Nodirshoh qo`shini Usmonlilarga chalg`ituvchi xabarlar

[7] Minorsky, V. Persia in the Fifteenth Century. 1964. P-87

[8] Ashraf, Ahmad & Banuazizi, Ali. "CLASS SYSTEM v. Classes in the Qajar Period." *Encyclopaedia Iranica*. Published December 15, 1992. https://www.iranicaonline.org/articles/class-system-v/

yuborish va dabdabali harbiy yurishlar orqali psixologik bosim o`tkazgan. Bu usullar dushman qo`shinlarida tartibsizlik yuzaga kelishiga sabab bo`lgan.

Xulosa

Nodirshoh Afshorning harbiy tizimi XVIII asr Eron tarixidagi eng muhim harbiy-siyosiy hodisalardan biri hisoblanadi. Uning harbiy muvaffaqiyatlarini faqat qo`shin soni yoki shaxsiy jasorati bilan izohlash yetarli emas. Nodirshohning muvaffaqiyatlari ortida turli harbiy an’analarni birlashtirgan va ularni o`z davrining siyosiy hamda harbiy sharoitlariga moslashtirgan murakkab tizim mavjud edi. Tadqiqot shuni ko`rsatadiki, Nodirshoh harbiy tizimining asosiy manbalaridan biri qadimgi turkiy harbiy an’analar bo`lgan. Otliq qo`shinlarning tezkorligi, yuqori harakatchanlik, kamondan foydalanish, soxta chekinish va pistirma kabi usullar uning harbiy strategiyasida muhim ahamiyat kasb etdi.

Ikkinchi muhim omil Safaviylar harbiy tajribasi edi. O`qotar qurollar, artilleriya, muntazam qo`shin va harbiy tashkilotning ayrim elementlari Nodirshoh tomonidan yanada rivojlantirildi.

Bundan tashqari, Nodirshohning ko`p millatli qo`shin tashkil etish siyosati uning harbiy tizimining o`ziga xos jihati bo`ldi. Afshorlar, qizilboshlar, turkmanlar, o`zbeklar, afg`onlar, gruzinlar, kurdlar, balujlar va boshqa guruhlarning yagona harbiy tizimga birlashtirilishi unga katta harbiy resurs yaratish imkonini berdi. SHunday qilib, Nodirshoh qo`shini qadimgi turkiy otliq harbiy an’analar, Safaviylar davrining o`qotar qurol va artilleriya tajribasi hamda ko`p millatli safarbarlik tizimining sintezi sifatida shakllangan. Aynan ushbu uyg`unlik Nodirshohga qisqa vaqt ichida Eron hududida markaziy hokimiyatni tiklash, yirik harbiy yurishlarni amalga oshirish va XVIII asrning eng qudratli harbiy arboblaridan biriga aylanish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axworthy, M. *The Sword of Persia: Nader SHah, from Tribal Warrior to Conquering Tyrant*. London, 2006.

2. Ashraf, A., & Banuazizi, A. “Class System V. Classes in the Qajar Period.” *Encyclopaedia Iranica*. Published December 15, 1992. URL: https://www.iranicaonline.org/articles/class-system-v/

3. Axworthy, M. *The Sword of Persia: Nader Shah: From Tribal Warrior to Conquering Tyrant*. London: I.B. Tauris, 2006. DOI: https://doi.org/10.5040/9780755612291

4. Bakhash, S. “Administration in Iran VI. Safavid, Zand, and Qajar Periods.” *Encyclopaedia Iranica*. Published December 15, 1983. URL: https://www.iranicaonline.org/articles/administration-vi-safavid/

5. Bonakdarian, Mansour. "INDIA vii. RELATIONS: THE AFSHARID AND ZAND PERIODS." Encyclopaedia Iranica. Published December 15, 2004. https://www.iranicaonline.org/articles/india-vii-relations-the-afsharid-and-zand-periods/

6. *Духовно-исторические связи народов Ирана и Дашти Кипчака: материалы Международной научно-практической конференции «Духовно-исторические связи народов Ирана и стран Центральной Азии» (15–16 мая 2017 г., г. Алматы)* / отв. ред. и сост. Сафар Абдулло. Алматы: Издательский дом «Библиотека Олжаса», 2018. 360 с.